



ir bor ekan, bir yo‘q ekan, bir chol bor ekan. Uning Zumrad ismli qizi bor ekan. Chol bir qizi bor ayolga uylanibdi. Qizining ismi Qimmat ekan. O‘gay ona Zumradni yoqtirmas ekan. Eng og‘ir ishlarni unga buyurar, qarg‘ab, urarkan. O‘zining qizini juda yaxshi ko‘rarkan, doim uni maqtagani maqtagan ekan.

Zumrad aqlli, chiroyli va muloyim qiz ekan. Qimmat esa unga hech ham o‘xshamas ekan. U tantiq, qo‘pol va dangasa ekan. Kun bo‘yi ovqat yer, bo‘lar-bo‘lmasga urisharkan.

Har tong qushlar ham, gullar ham Zumradni



ыло это или не было, жил-был старик со своей дочерью Зумрад. Женился он на женщине, у которой тоже была дочь – Киммат. Мачеха сразу невзлюбила Зумрад. Заставляла делать самую тяжёлую работу, била её, ругала. А свою дочь очень любила и без конца хвалила её.

Зумрад была умная, красивая и приветливая девочка. Киммат совсем не была на неё похожа: капризная, неприятливая, ленивая. Целыми днями только и делала, что ела, ворчала и ссорилась.

Птицы и цветы каждое утро радостно встречали Зумрад, песенки ей пели, сказки



qo'shiq kuylab, olqishlab kutib olar, Qimmatni esa ular yoqtirmas edilar, chunki u gullarni yulib tashlar, tepkilar, qushlarga tinchlik bermasdi.

O'gay ona bularni ko'rib turardi. Zumraddan qutilmoqchi bo'lib cholga:

– Agar q'izingni yo'qotmasang, sen bilan birga yashamayman! Uni o'rmonga olib borib tashla! – deb qichqiribdi.

Chol nima qilarini bilmay qolibdi. Kampir esa tinchlik bermasmish. Chol Zumradni o'rmonga olib boribdi. Ular uzoq yurishibdi, o'rmon ichiga kirishibdi.



сказывали. Киммат они не любили, прятались от неё, потому что она распугивала птиц, рвала и топтала цветы.

Мачеха всё это видела и негодовала. Решила она избавиться от Зумрад и сказала старику:

– Если не прогонишь свою негодную дочь, духу моего здесь не будет! Отвези её в лес и оставь там.

Растерялся старик, не знает что делать. Грозится старуха, житья не даёт. Делать нечего, повёл старик Зумрад в лес. Долго шли, в самую глушь зашли.

– Посиди здесь, доченька, а я дров нарублю, – сказал старик, отошёл подальше, повесил





Shu yerda o‘tirib tur, qizim. Men o‘tin kesib kelaman, – debdi chol. Uzoqroqqa borib, boltasini daraxtga osib qo‘yibdi: «Taq! Taq!» – bolta shamolda daraxtga urilarmish. Zumrad taqillagan ovozni eshitib, “otam o‘tin kesyapti” deb o‘ylabdi.

U otasini uzoq kutibdi, lekin darak bo‘lmabdi. Taqillagan ovoz ham chiqmay qolibdi. Otasini qidirib yursa, bexosdan bolta osilgan daraxt tagiga borib qolibdi. Qarasa, otasi yo‘q emish.

Zumrad qo‘rqqanidan yiq‘lab yuboribdi. U o‘rmonda uzoq yurib, adashib qolibdi. O‘rmon ichi qo‘rqinchli tusga kira boshlabdi. Ancha kech bo‘lib qolgan edi-da. Nihoyat bir yorug‘lik ko‘rina

топор на дерево, а сам ушёл. Ветер раскачивает его и стучит о дерево: «Тук! Тук!». А Зумрад сидит, слышит стук и думает, что это отец дрова рубит. Долго она сидела, а отец не идёт. Уже и стука не слышно. Пошла она искать отца и вдруг видит – на дереве висит топор, а отца нет.

Испугалась Зумрад, заплакала. Долго шла она по лесу и так заблудилась, что совсем страшно стало. А время уже позднее. Наконец увидела в ночи какой-то огонёк. Пошла Зумрад в ту сторону и скоро пришла к маленькому домику. Заглянула в окно, а там старуха сидит. Постучалась и вошла в дом. Поздоровалась и рассказала старушке, что с ней случилось.





boshlabdi. Zumrad o'sha tomonga qarab yura boshlagan ekan, bir kichkina uycha yoniga kelib qolibdi. Derazadan mo'ralasa, ichkarida bir kampir o'tirgan ekan. Eshikni taqillatib, ichkariga kiribdi. Salom beribdi. Keyin boshidan kechirgan voqealarni aytib beribdi. Kampir sehrgar ekan. U Zumradni iliq, mehribonlik bilan kutib olibdi.

– Xafa bo'lma, men senga yordam beraman.

– U Zumradni ovqatlantiribdi, ovutibdi, erkalabdi.

– Meni o‘z onamdek qabul qildingiz, – debdi Zumrad. – Sizga qanday qaytarsam ekan, men ishdan qochmayman, ishlaringizni jon-dilim bilan bajaraman.

Zumrad kampirga juda yoqib qolibdi. Uni erkalab, qo‘g‘irchoqlar beribdi, ertaklar aytib beribdi, qiziq-qiziq kitoblar ko‘rsatibdi.



А старушка эта была доброй лесной волшебницей. Встретила она Зумрад ласково и приветливо.

– Не печалься, я помогу тебе, – утешила она её. Накормила и напоила Зумрад.

– Вы меня как родная мать приняли, – говорит Зумрад. – Как мне отблагодарить вас? Я люблю работать и для вас охотно сделаю любую работу.

Понравилась ей Зумрад. Она ласково относилась к ней, давала в куклы поиграть, сказки рассказывала, интересные книжки читала. Так прожили они вместе много дней. С приходом Зумрад в домике стало чисто и уютно, всё заблестело. В один из дней старушка решила приготовить плов и говорит:

– Доченька, полезай-ка на крышу и достань дров.

– Хорошо, бабушка, – ответила Зумрад и по лесенке взобралась на крышу.

Shunday qilib ular ancha kun birga yashashibdi. Zumrad kelgach, uy saranjom-sarishta, chinniday toza bo'lib qoldi.

Bir kuni kampir osh qilmoqchi bo'lib:

– Qizim, tomga chiqib o'tin olib tushgin, – debdi Zumradga.

– Xo'p bo'ladi, buvijon, – deb Zumrad tomga chiqibdi.

Tom juda baland ekan, u yerdan hammayoq ko'rinar ekan. Qiz atrofni tomosha qilib turib, qarddon uyiga ko'zi tushibdi. Yuragi uvishib, yig'lab yuboribdi.

– Nega yig'layapsan, jon qizim? so'rabdi kampir.



А крыша была высокая, и с неё было далеко видно. Посмотрела она по сторонам и вдалеке увидела свой родной дом. Грустно стало Зумрад, заплакала она.

– О чём плачешь, бусинка моя? – спрашивает старушка.

– Родной дом увидела. Я по отцу очень соскучилась, – отвечает Зумрад и продолжает плакать.

Старушка её успокоила, пловом накормила, сказку рассказала и уложила спать. А поутру говорит:



– Uyimizni ko‘rib qoldim, otamni sog‘indim, – deb Zumrad yig‘lab yuboribdi.

Kampir uni yupatibdi, osh eyishibdi, keyin ertak aytib beribdi. Qiz uxlab qolibdi.

– Qizginam, o‘yinchoqlaringni yig‘ishtir. Seni uyingga jo‘nataman, – debdi kampir. – Tomda qizil va oq sandiq bor. Oq sandiqni qoldirib, qizil sandiqni olib tush.

O‘zi esa o‘rmonga kirib ketibdi. Zumrad narsalarini yig‘ishtirguncha, u saman ot qo‘shilgan aravani yetaklab kelibdi. Aravaga qizil sandiqni joylabdi, Zumradni esa o‘tqazib:



– Собирай, доченька моя, свои игрушки. Домой тебя отправлю. На крыше у меня стоят два сундука: красный и белый. Ты красный сундук возьми, а белый оставь.

А сама в лес пошла. Пока Zumrad собиралась, старушка привела буланого коня, запряжённого в арбу. Посадила Zumrad на арбу, поставила рядом красный сундук и протягивает ей ключик:

– Возьми ключик от сундука. Когда домой приедешь, сундук и откроешь.





– Kalitni ushla. Uyingga borganingdan keyin sandiqni ochasan, – debdi.

Qiz kampirga minnatdorchilik bildirib, xayirlashibdi-da, yo‘lga tushibdi. Shu payt chol qizini soq‘inib, ostonada o‘tirgan ekan.

– Salom, otajon! – deb otasining bag‘riga otilibdi.

Qizining soq‘-salomat ekanligidan xursand bo‘lgan chol, anchagacha ko‘z yoshlarini to‘xtatolmabdi.

– Oppog‘im, men nodon cholni kechir!

Ular uyga kirishibdi. Qo‘ni-qo‘shnilar yig‘ilibdi. Zumrad kalit bilan sandiqni ochibdi.

– Voy-bo‘!!! – hayron bo‘lganliklarini yashirolmabdilar atrofdagilar.

Sandiq qimmatbaho kiyimlar, shoyi va taqinchoqlarga liq to‘la emish. Zumradning butun umriga yetib, ortar emish.

O'gay ona esa bularni ko'rib, bezovta bo'lib, tipirchilab qolibdi. Shu ondayoq Qimmatni ham o'rmonga olib borishni buyuribdi. Chol tezda o'tlanib, Qimmatni qalin o'rmonga olib boribdi.

Kech kirganda Qimmat cholning boltasi osib qo'yilgan daraxt tagiga kelibdi. Baqirib, ho'ng-ho'ng yig'labdi. Vahimaga tushib, yugura boshlabdi, nihoyat, kampirning uyi yoniga kelib qolibdi.

– Xafa bo'lma, qizim, senga yordam beraman,



Попрощалась Зумрад, поблагодарила старушку и отправилась домой. Конь вмиг доставил Зумрад к родному дому. А на крыльце сидел старик и тосковал по дочери.

– Здравствуй, отец! – крикнула Зумрад и бросилась в объятия отца.

Обрадовался старик, что дочь цела и невредима, обнял её и заплакал:

– Миленькая моя! Прости меня, старика-дурака!

Вошли в дом. Вскоре все соседи собрались. Зумрад открыла ключиком сундук.

– Ах, ах! – раздались вокруг восторженные голоса.

Сундук был наполнен дорогой одеждой, шелками и драгоценностями. На всю жизнь Зумрад хватит.



– debdi kampir va uni ovqatlantiribdi, iliq so‘zlar aytibdi.

Lekin Qimmat yaxshi so‘zlar topib, kampirga minnatdorchiligini bildirmabdi. Kampir undan xafa bo‘libdi, qo‘g‘irchoqlar va rasmi kitoblar bermabdi, ertak ham aytib bermabdi.

Kunlar, haftalar o‘taveribdi. Qimmat ertadan kechgacha yalqovlanib o‘tiraverar, uyni yig‘ish-tirmas, kampirga ham yordam bermabdi. Uy ham iflos va chang bo‘lib ketibdi.

Bir kun kampir Qimmatga:

– Tomga chiib, o‘tin olib tush, qizim, – debdi.

– Sizga kerak bo‘lsa, o‘zingiz olib tushing, – deb javob qaytaribdi Qimmat.

Kampir uni tomga chiqishga zo‘rg‘a ko‘ndiribdi. Qimmat tomga chiqib, o‘tin olib tushish o‘rniga, o‘tirib olib yig‘lay boshlabdi.

– Nega yig‘layapsan, qizim? – deb so‘rabdi kampir.

– Uyimni ko‘rib qoldim, ketgim kelyapti, – deb yig‘isini davom ettiribdi Qimmat.

Забеспокоилась, засуетилась мачеха от увиденного. Тут же приказала старику отвезти и Киммат в лес. Старик быстро собрался и отвёз Киммат в самую гущу леса.

К вечеру Киммат, не дождавшись старика, пришла к дереву, на котором висел топор. Закричала, заплакала. В страхе побежала она по лесу и, наконец, прибежала к домику старушки.

– Не печалься, доченька, я тебе помогу, – успокоила её старушка.

Обогрела, накормила и напоила Киммат. Но Киммат слова доброго в ответ не сказала. Обиделась старушка, ни кукол, ни книг не дала ей и на ночь сказку не рассказала.

Проходят дни, недели. Ничего не делает Киммат. Сидит с утра до вечера, бездельничает. В доме не убирает, старушке не помогает. Грязно и пыльно в домике стало. Однажды старушка просит Киммат:





– Ha, mayli, boraqol. Tomdagi sandiqni o‘zing bilan olib tush.

Qimmat xursand bo‘lib ketibdi, sandiqni tomdan olib tushibdi.

– Sandiqni uyingga borganda ochasan, – debdi kampir va qizga kalitni beribdi.

Lekin kampir Qimmatga ot, arava bermabdi, u sandiqni orqalagancha, uyiga piyoda ketibdi.

Qimmatni qaytayotganini Olapar itlari sezibdi. It jahldor kampirni oldiga borib:



– Полезай, доченька, на крышу за дровами.

– Вам нужно, вы и полезайте, – отвечает Киммат.

Еле уговорила старушка её. Полезла Киммат на крышу, дров не берёт, сидит и плачет.

– Что же ты плачешь, доченька? – спрашивает её старушка.

– Дом свой увидала. Домой хочу! – плачет Киммат.

– Так и быть, иди, – говорит старушка. – Захвати с собой сундук, что стоит на крыше.



– Vov, vov, vov! Opam kelayotir! Ilon to‘la sandiqni orqalab kelayotir, – deb vovullabdi.

Kampir g‘azablanib, tayoqcha bilan itni urib, oyog‘ini sindiribdi.

– Mening aqlli qizim kelyapti, qimmatbaho mollar keltiryapti, – o‘zida yo‘q xursand emish kampir.

Qimmat uyiga zo‘rg‘a-zo‘rg‘a yetib kelibdi. Qo‘shnilar yig‘ilibdi. Qimmat onasi bilan sandiqni ochmaslik uchun ustiga o‘tirib olishibdi. Kechqurun sandiqni ichkari xonaga olib kirib, eshiklarni mahkam yopishibdi-da sandiqni ochishibdi-yu, “Voy, dod, qutqaringlar! Ajdar! Yordam beringlar!” – deb baqirishga tushishibdi.

Обрадовалась Киммат, спустила вниз сундук. Старушка дала ей ключик от него и сказала:

– Дома откроешь.

Но коня и арбу не дала. Пришлось Киммат сундук на себе тащить.

Почуяла собака, что Киммат идёт, подбежала к злой старухе и лает:

– Гав, гав, гав! – и что-то себе под нос бормочет.

Прислушалась старуха и слышит:

– Гав, к дому дочь идёт, на спине сундук несёт, в нём змей полно, гав! Гав!

Рассердилась старуха да как стукнет палкой собаку, что ноги ей перебила. А сама с радостью думает:



Sandiqdan ikkita kattakon ajdar chiqib, kampir bilan qizni yutib, derazadan chiqib ketishibdi.

“Dod-voy!”ni eshitib qo‘ni-qo‘shnilar yordam berish uchun yig‘ilishibdi, eshikni buzishib ichkariga kirishsa, kampir ham, qizi ham yo‘q emish. Rosa qidirishibdi, topisholmabdi.

Chol Zumrad qizi bilan shod-xurram yashashibdi.



“Моя доченька идёт, дорогие шелка и драгоценности несёт!”

Еле-еле добралась до дома Киммат. Собрались соседи. А старуха и Киммат сели на сундук и не открывают его. К вечеру занесли сундук в самую дальнюю комнату и закрылись, а в полночь открыли да как закричат:

– Вай дод! Вай дод! Спасите! Драконы! Помогите!

Из сундука вылезли два больших дракона и проглотили сварливую старуху с её дочкой. И исчезли через окно.

Услышали соседи крики и вопли в доме, прибежали, чтобы помочь, взломали дверь, а там нет ни старухи, ни Киммат. Искали долго, так и не нашли их.

А старик и Зумрад после этого зажили мирно и счастливо.

